

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA  
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**«Himoyaga ruxsat»**

“KG va D” kafedra mudiri

F.M.Nuraliev

\_\_\_\_\_

2013 y «\_\_» \_\_\_\_\_

**“ADOBE FLASH DASTURIDA JONLI MAVJUDOTLAR  
ANIMATSIYA YARATISH QUSH PARVOZI”**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bitiruvchi \_\_\_\_\_ Mamajonov R.A.  
(imzo) (famiyasi)

Rahbar \_\_\_\_\_ Mustafakulov YA.U.  
(imzo) (famiyasi)

Taqrizchi \_\_\_\_\_ Musafirov V.D.  
(imzo) (famiyasi)

XFX dan \_\_\_\_\_ Qodirov F.M.  
maslahatchi (imzo) (famiyasi)

TOSHKENT-2013

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA  
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Fakultet *Televizion texnologiyalar*

Kafedra *Kompyuter grafikasi va dizayn*

Yo'nalishi(mutaxassislik) shifri va nomi *5525600-Kompyuter grafikasi va dizayn*

**«TASDIQLAYMAN»**

Kafeda mudiri \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2013 y.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishga

**TOPSHIRIQ**

*Mamajonov Rasuljon Ahmadjonovich*

(familiya, ismi, otasining ismi)

1. BMI mavzusi *«Adobe Flash dasturida jonli mavjudotlar animatsiya yaratish: Oush parvozi»*
2. *«4» 02. 2013 y. B № 110* sonli buyrug'i bilan universitet bo'yicha tasdiqlangan.
3. *Yakunlangan ishni topshirish muddati 1.06.13 y*
4. Ishning boshlang'ich ma'lumotlari *Rahbar tomonidan qo'yilgan topshiriqlar asosida Adobe Flash dasturida jonli mavjudotlar animatsiya (Odam yugurishini) yaratish*
5. Hisob tushuntirish matni mundarijasi *(Kirish, kompyuter animatsiyasi, dasturiy ta'minoti, odam yugurishi animatsiyasini yaratish, XFX, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar.)*
6. Grafik materiallar ro'yxati ketma-ketligi *diplom proektining prezentatsiya slaydlari*
7. Topshiriq berilgan kun *5.02.13 y*

Rahbar \_\_\_\_\_  
(imzo)

Topshiriqni oldi \_\_\_\_\_  
(imzo)

## 8. BMI ning har bir bo'limida bajariladigan ishlarga maslahatlar

Bo'lim	Rahbar F.I.O	Imzo vaqt	
		Topshiriq berdi	Topshiriq oldi
1. Adabiyotlarni tahlil qilish.	Mustafakulov YA.U.	05.02.13	05.02.13
2. Adobe Flash dasturi imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqish.	Mustafakulov YA.U.	21.02.13	21.02.13
3. Qush parvozini modellashtirish.	Mustafakulov YA.U.	15.03.13	15.03.13
4. Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish.	Mustafakulov YA.U.	06.04.13	06.04.13
5. Hayot faoliyati xavfsizligi	Qodirov F.M.	09.04.13	09.04.13
6. Xulosa	Mustafakulov YA.U.	21.05.13	21.05.13

## 9. Ishni bajarish grafigi.

No	BMI bo'limlarining nomlari	Bajarish muddati	Bajarilganligi haqida rahbar imzosi
1.	Adabiyotlarni tahlil qilish.	05.03.13-20.02.13	
2.	Adobe Flash dasturi imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqish	21.02.13-15.03.13	
3.	Qush parvozini modellashtirish	15.03.13-05.04.13	
4.	Dasturiy ta'minotni ishlab chiqish	06.04.13-10.05.13	
5.	Hayot faoliyati xavfsizligi	11.05.13-18.05.13	
6.	Xulosa	21.05.13-27.05.13	

Bitiruvchi \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2013y.  
(imzo)

Rahbar \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2013y.  
(imzo)

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

#### **I BOB. ANIMATSIYANING PAYDO BO`LISHI VA HOZIRGI ZAMON ANIMATSIYASI**

- 1.1. Animatsiya tushunchasi
- 1.2. Animatsiya tarixi
- 1.3. Animatsiya yaratish texnologiyalari.
- 1.4. Animatsiya prinsplari
- 1.5. Animatsion filmni yaratish bosqichlari

I-bob bo'yicha xulosa

#### **II BOB. ADOBE FLASH DASTURI**

- 2.1. Grafik dasturlar. Adobe Flashda animatsiya.
- 2.2. Flash filmlarni ishlatish variantlari va uni grafik formatlarga o'tkazish.
- 2.3. Flash filmni yaratish asosiy sxemasi, yaratish ketma-ketligi.
- 2.4. Montaj stoli, foydalanuvchi interfeysning tashkil etish.
- 2.5. Asosiy oynasining strukturasi, foydalanuvchi interfeysini sozlash.
- 2.6. Action Scriptda obyektlarni yaratish va boshqarish.

I-bob bo'yicha xulosa

#### **III BOB. QUSH PARVOZINI MODELLASHTIRISH VA UNING ANIMATSIYASINI ADOBE FLASH DASTURIDA YARATISH**

- 3.1. Qush parvozi animatsiyasini yaratish.

II-bob bo'yicha xulosa

#### **IV BOB. XAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI**

- 4.1. Asosiy tushunchalar
- 4.2. Korxonalarda mehnat muhofazasiga oid ishlarni tashkil qilish
- 4.3. Texnogen xarakterdagi favqulodda holatlarning sodir bo'lishi

III-bob bo'yicha xulosa

### **XULOSA**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **ILOVA**

## **Annotatsiya**

Ushbu malakaviy bitiruv ishi Adobe Flash dasturiy vositasining animatsiya yaratish bo'yicha imkoniyatlarini o'rganish va unda qush parvozi animatsiyasini yaratishga bag'ishlangan. Maqsadga erishish uchun Adobe Flash dasturi o'rganib chiqildi. Qush parvozi modellari o'rganildi. Qush parvozi animatsiyasi algoritmi yaratildi..

## **Аннотация**

Настоящая дипломная работа посвящена к изучению возможностей программного средства Adobe Flash по созданию анимации и созданию анимации полета птицы. Для выполнения поставленной задачи изучено программное обеспечение Adobe Flash, также модели полета птицы. Разработана алгоритм и анимации полета птицы.

## **The summary**

The present thesis is devoted to studying the possibilities of Adobe Flash software tool for creating animation and animation bird flight. To accomplish the task studied software Adobe Flash, also models bird flight. Developed algorithm and animation bird flight.

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng jamiyatimizda bir qator qonunlar va umummilliy dasturlarning qabul qilinishi, huquqiy demokratik jamiyatni barpo etishda va buyuk kelajak sari olg'a qadam qo'yishimizda mustaqil poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Respublikamizda barcha soha singari ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu sababli Respublikamizda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga doir bir nechta davlat qonunlari, farmonlari va Prezident qarorlari qabul qilindi. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (21 mart 2012 y.) va boshqalar.

Ta'lim tizimidagi islohotlarni amalda joriy qilishda o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llash asosida talabalarga jahon andozalardagi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish o'quv jarayonini moddiy – texnika va axborot bazasi bilan ta'minlash yuqori darajali malakali kadrlarni tayyorlash sifatli o'quv – uslubiy, ilmiy hamda didaktik materiallar yaratish, ta'lim tizimi fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro samarali aloqadorlik o'rnatish, ta'limning dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shuningdek, televizion texnologiyalarining kundan kunga rivojlanib borishi, ekran madaniyati kabi tushunchalarning bizning hayotimizga kirib kelishi, turli sohalarda ko'rgazmali materiallarni yaratish va ularni hayot jabhalarida qo'llashni talab etadi.

Ayni paytda televizion ko'rsatuvlar, reklamalar va albatta o'quv materiallarini yaratishda animatsiyaning ahamiyati katta. Dastlabki animatsion materiallar juda oddiy va eski texnologiyalar orqali yaratilgan. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida animatsiyalarni yaratishning misli ko'rilmagan imkoniyatlari vujudga keldi.

Jumladan, Flash texnologiyasining paydo bo'lishi mul'tiplikatorlar orzusining ushlagani deb qaralsa mubolag'a bo'lmaydi. Flash texnologiyasining imkoniyati bu borada naqadar kattaki, unda nafaqat filmlar yaratish balki Action Script tili yordamida interaktiv animatsiyalarni yaratish mumkin. Flash texnologiya asosiy vazifasi grafika va animatsiya bo'lgan interaktiv dasturlarni yaratishdan iboratdir. Flash yaratuvchilari uning yordamida olingan filmlarni ishlatilishini yana ikki boshqa variantlarini ham ishlab chiqishgan. Birinchidan Flash filmlarini mustaqil (Web browserda bog'liq bo'lmagan holda) namoyish etilishi, ikkinchisi esa Flash filmlarini boshqa formatlariga o'tkazilishidir.

Filmlarni flash yordamida yaratish va taxrirlash vaqtida muallif fla formatiga ega fayllar bilan ishlaydi. Bu Flash muxarririni ichki formatidir va u faqat Flashda tushinarlidir. Web-browser yordamida namoyish etish uchun mo'jallangan filmlar swf formatiga o'tkazib olishi zarur. Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, ushbu format browserlari (Internet Explorer, Netscape va Opera) so'ngi versiyalarida namoyish etilishi mumkin yoki maxsus Flash pleer yordamida ham namoyish etilishi mumkin.

Ushbu Flash player Flash muxariri tarkibiga mustaqil dastur sifatida kiradi va swf fayllar muxaririsiz ham Flash pleerda namoyish etilishi mumkin. Shu bilan birga filmning barcha funksional va interaktiv imkoniyatlar saqlanib qoladi.

Flash filmlarini "avtonom" namoyish etilishi ikkinchi variant bu-Universal Media pleerdan foydalanishdir. Buning uchun Flash film avi formatida eksport qilinishi kerak. Lekin bu holda filmni hajmi ayrim hollarda yuz barobar ortib ketishi mumkin.

Dasturlash tillarida ob'ekt faqat shu ob'ektga qo'llanishi mumkin bo'lgan atributlar (xususiyatlar) to'plami va usullar ro'yxati bilan ifodalanadi. Har bir sinf ob'ektlari uchun o'z atributlar va usullar to'plami belgilangan. Masalan "tugma" ob'ekti uchun atributlar sifatida ishlatilishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan Flash filmlarni eksporti ularning dinamikasini (u yoki bu darajada) saqlanishini taminlaydi. Lekin zarur bo'lganda Flashdan oddiy grafik muxariri sifatida ham foydalanish mumkin. Uning yordamida yaratilgan tasvir so'ng

biror bir grafik format (vektorli yoki rastrli)ga o'tkazilishi mumkin. Shu bilan Flash filmga boshqa grafik formatlardan berilgan tasvirlarni qo'shish(import qilish) imkoniyatiga ega.

Flash filmlarni namoyish etilishini turli usullari mavjudligiga qaramasdan bugungi kunda bu texnologiyani qo'llanishining asosiy yo'nalishi bu chiroyli va dinamik Web sahifalar yaratishdir.

Flash filmlarda tovushni ishlatishni bir necha usullarini taqdim etadi. Siz filmni syujeti va foydalanuvchi bajargan amaldan qat'iy nazar to'xtamaydigan amalni yaratishingiz mumkin. Alternativ variant animatsiya va tovushni sinxronlash. Bundan tashqari Flash tugmachalariga tovush ishlatishingiz mumkin.

**Tadqiqot ob'ekti.** Bitiruv malakaviy ishning tadqiqod ob'ekti bo'lib animatsiyalarni va video fayllarni yaratish texnologiyalari hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti.** Animatsion tasvirlarga asoslangan fayllarni yaratish usullari, harakatni modellashtirish va animatsion fayl yaratish metodologiyasi va ularni qo'llash usullari.

**Tadqiqot maqsadi.** Odam yugurishida tana organlarining harakatini o'rganish, uni modelini va Adobe Flashda animatsion dasturini ishlab chiqish.

**Tadqiqod vazifalari.** Animatsion fayllar va ularni yaratish dasturiy vositalarini va qayta ishlashga mo'ljallangan dasturlarni o'rganish. Animatsion fayllarni yaratishning texnologik bosqichlarini tahlilini o'tkazishdan iborat.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Odamning yurishi, yugurishi, zinapoyadan ko'tarilishi modellari o'rganildi va animatsion fayllari yaratildi. Ushbu fayllardan elektron o'quv-metodik majmua resurslarini yaratishda foydalanish mumkin


# I BOB. ANIMATSIYANING PAYDO BO`LISHI VA HOZIRGI ZAMON ANIMATSIYASI

## 1.1. Animatsiya tushunchasi

«Animatsiya» sohasining dolzarbligi bugungi kunda hech qanday shubha qoldirmaydi. Bundan taxminan 100 yillar dastlabki multfilmmlar paydo bo`lib, hammani hayratga solgan edi. Zamonaviy animatsion texnologiyalarning vujudga kelishi, multimedia proektlar va prezentatsiyalarning asosiy elementiga aylandi va ular borgan sari internet sahifalarda ko`payib bormoqda. Shuningdek, animatsiya televideniya ham keng ko`lamda qo`llanilmoqda. Masalan. Ko`plab telekompaniyalar zastavkalarni yaratishda kompyuter animatsiyasidan foydalanishadi. Videomahsulotlarni yaratishda professional video elementlaridan va kompyuter animatsiyalari priyomlaridan foydalaniladi.

Bugungi kunda yaratilgan animatsiya, juda turli tumandir. Afsuski, kompyuter texnikasi imkoniyatlarining oshishi bilan ko`pchilik insonlar uchun o`z tasavvuridagi g`oyalarini ko`rish o`rniga eng so`nggi modadagi maxsus effektlarni ko`rishga to`g`ri kelmoqda.

Ushbu paragrafda animatsiyani yaratishning mavjud texnologiyalarining sistematikasi va animatsiyalarni yaratish printsiplari ko`rib chiqiladi.



Insoniyat mavjud ekanki o`z san`atida harakatni ifodalashga intilgan. Harakatni rasm orqali ifodalashga bo`lgan dastlabki urinishlar eramizdan oldingi 2000 yillarda Misrda bo`lgan.

Yana bir misol. Shimoliy Ispaniyaning g`orlarida topilgan. Bu sakkiz oyoqli to`ng`iz ko`rinishida ifodalangan.



Bugungi kunda harakatni ifodalash uchun animatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi. Kino, televidenie va kompyuter grafikasi yordamida harakatni rasmlar


yoki kadrlar ketma-ketligini ma'lum chastotada sun'iy ravishda obrazlarni ko'rish orqali qabul qilishni ta'minlashga - animatsiya deyiladi.

Uzluksiz harakatdan foydalanuvchi videodan farqli o'laroq, animatsiya bir biriga bog'liq bo'lmagan rasmlar to'plamidan iborat. «Animatsii» – «mul'tiplikatsiya» - sinonimi juda keng tarqalgan. Animatsiya va mul'tiplikatsiya – san'at turining ikki ko'rinishdagi ta'rifidir. Bizga ko'proq ma'lum bo'lgan termin «mul'ti» lotincha so'z – ko'p so'zidan olingan bo'lib, ko'p rasm ma'nosini anglatadi. Qahramonni «jonlatirish» uchun rasmlarni kerakli miqdorda takrorlash zarur: sekundiga 10 dan 30 gacha chizilgan kadrlar.

Ammo, shuni ta'kidlash joizki, jahonda «animatsiya» (lotinchadan tarjima qilinganda «anima» – jon, «animatsiya» – jonlantirish tushuniladi). Animatsion kinoning zamonaviy texnik va badiiy imkoniyatlarini bundan ortiq ta'riflash mumkin emas, chunki animatsiya ustalari o'z qahramonlarini yaratishda, jonlantirishda o'z mehrlarini ham berishadi.

## 1.2. Animatsiya tarixi

Ixtiyoriy san'at singari animatsiya ham o'z tarixiga ega. Animatsiyaga asoslangan ko'rish orqali qabul qilishning inertlik printsipi 1828 yil birinchi bo'lib, frantsuz Paul Roget (Paul Roget) tomonidan namoyish etilgan. Namoyish ob'ekti sifatida disk olingan edi va uning bir tomonida qush rasmi chizilgan va ikkinchi tomonida qafas surati tushirilgan. Diskni aylantirishda tomoshabinda qush go'yoki qafasda joylashgandek illyuziya hosil qilgan.



Animatsiya yaratishning birinchi amaliy usulini Tom A. Edison (Thomas A. Edison) tomonidan fotokamera va proektorning yaratilishi asos bo'lgan.

1906 yil Styuard Blakton tomonidan «quvnoq yuzlarning kulgili ifodalari» (Humorous Phases of Funny Faces) qisqa film yaratildi. Muallif doskada rasm chizadi, uni suratga oladi va o'chiradi, rasm chizadi, uni suratga oladi va o'chiradi....

Animatsiya dunyodida xaqixiy revalyutsayni Amerikalik rassom, rejissyor va pradyusser Uolt Disney (1901-1966) ko`rsatdi.

U 1923 yilda “Alisa mo`jizalar mamlakatida ” seryasini namoyish etdi. 1928 yilda esa Mikki Maus qaxramon asosida musiqaviy multfilm “Villi Kemachi ”ni keyinchalik dunyo bolalari muhabbati quvonchiga erishgan Donald Dak o`rdakcha ni yaratdi. Disney studiyasi ijodkorlari qilingan ishlari uchun 12 ta “Oskar” mukofotini olishgan.

1913 yil Yaponiyada 1 animatsiya eksprimenti o`tkazilishi boshlandi. 1917 yilda esa 1minutdan 5 minutgacha bo`lgan animatsion film ishlab chiqildi. Bu filmlar har bir rassomlarni ishlari bo`lib, yevropa, amerika multipiklikatorlari tajribalarini birlashtirib ishlangan edi va shu ko`rinishda yapon stilidagi “anime” deb nomlangan animtsya dunyo keldi. 20- yillarda yapon ananviy stili grafigida chizilgan yapon , xitoy etaklari asosida klassik anime ekranlashtirilgan edi. O`sha vaqtning personajni qog`oozga tushirishda Simokava Dekoten, Koti Dzyuniti, Kitayno Seytaro, Yamomota Sanae, Murata Yasudzi va Ofudzi Noborular mashhur animatlaridan hisoblanishgan.

1932 yili yaponiyada birinchi animatsiya etudiyasi yaratildi va 1933 yilda esa birinchi ovozli animatsiya yartildi.

1943 yilda hukumatni qaroriga asosan birinchi to`liq metrajli “Momotoro, dengiz burguti” nomli anmatsion filim olindi.

60-70 yillarda yapon animtsiyasini Tudzuki Osamu nomi bilan bog`liq. U tomashabin ommasiniyorib kirishda tasirchan anime filimlari bilan don qozondi. *(chundim tarjima qilomadim)*

Shu asnoda 70 yillarda anime Yaponiyada eng ommabop pullik tijorat sanati ga aylandi. O`sha yillarda anime televizion serial sifatida asosiy rol o`ynadi.

Rossiya ekranlarida turli yillarda yapon filimlari namoyish etildi bulardan: “Jodugar Salli”, “Etik kiygan mushik”, “Sharpalar kemasi”, “Asalari Maya sarguzashtlari ”, “Konan-kelajakdan kelgan bola” va boshqalar.

### **1.3. Animatsiya yaratish texnologiyalari**

Hozirgi davrda turli animatsiya yaratuvchi texnologiyalar mavjud:

1. Klassik (ananaviy) animatsiya- bu rasmlarni ketma-ketlik bilan o`tkazish, har bir rasm alohida chizilgan bo`ladi. Bu ko`p mehnat sarf etadi, animatrlar har bir kadrda rasmlarni alohida ishlashlari lozim bo`ladi.
2. Stop-kadrli (qo`g`irchoq) animatsiya- bunda obektni havoda shunday joylashtiriladiki harakat kadrda olinadi va toxtatiladi undan so`ng yana boshqa harakatlar tasvirga olinadi.
3. Sprayt animatsiya- bu dasturlash tillari asosida amalga oshiriladi.
4. Morfing- bir obektdan boshqasigacha bo`lgan harakat generasialandi yani, taxminiy hisoblandi va kadrlar yasaldi.
5. Rangli animatsiya-bunda obektning rang holati o`zgartiriladi.
6. 3D-animatsiya- bu maxsus dasturlar asosida yaratilib( misol uchun, 3D MAX) tasvirni fazoda 3 o`lchamda, turli nuqtalar asosida yaratiladi. Bunday dasturlar turli obektlar, ranglar jamlanmasi, teksturalar bilan boyitilgan va har bir kadrda o`zgacha jilo berishi bilan boyitilgan bo`ladi.
7. Harakatni ushlab (Motion Capture)- birinchi animatsion yo`nalish real vaqt davomida real voqeylikni aks ettirish imkoni beradi. Maxsus datchik insonga o`rnatiladi va insonni harkati nuqtalari kompyuterga modellashtiriladi. Keyinchalik harakat raqamlashtirilib tasvirga birlashtirilib animatsion harakat yaratiladi.

### **1.4. Animatsiya prinsplari**

Animatsion filmlarni yaratishda umumiy prinsiplar qo`llaniladi Shulardan asosiysi quyidagilar:

1. “Qisqarish va Cho`zilish” Bu prinsip animatsia dunyosida revalyutsiya bo`ldi. Prinsippi mohiyati shundan iboratki, har bir trik tanaharakat vaqtida har doim qisqardi va uziyadi. Sakrashdan oldin qisqaradi huddi purjinaga o`xshab, skarash vaqtida esa uzayadi. Bu Asosiy qoidani hardoim ko`ramiz- agar personaj cho`zilsa (stretch – Y o`qi bo`ylab shaklni o`zgrishi), u albatta qisqarishi shart o`z muvozanatini saqlash uchun. (squash – X bo`ylab shaklni o`zgartirish).

2. “Harakatga tayorlanish” (Anticipation). Real hayotda qandaydur harakat sodir bo`ldi deylik, inson har doim harakat qilishga tayorlanadi, Masalan, sakrashdan oldin o`tiradi, qo`llar harakati orqaga ketadi. Bu harakat harakati deyiladi. Har bir personajni ishlashda bunday harakatlarga alohida etibor beiladi. Bunday harakatlar tomoshabinlarda inersiya harakatini keltrib chiqardi.

3. Sahnaboplik (staging). Tomashabin personajni to`g`ri idrok etishida uni harakati, turish holatdagi mimika imo ishoralari muhim ro`l o`ynaydi. Bu prinsip teatrning asosiy qoidasi bo`lib ham hisoblandi. Tasvirga olishda har bir anashu harakat tomoshbin diqqatiga ochib berilishi lozim.

4. “Kalit kadlar” (Pose to Pose). Bu prinsip kadrni kompanovka jarayonini nazarda tutadi ya`ni, rasom personajni aniq bir holatda turagani chizadi. oldindan rjalahstrilgan hamma harakatlar va natijalar ana shu holatni o`ylashga olib keladi. Bu holat unumdorlikni oshiradi. Muammo shundaki bunday harakatdagi tasvirni yaratishda rassomlardan katta mehnatni talab qildi.

5. “Uzluksiz harakat ” (follow through / Overlapping actions). Bu prinsip asosiga ko`ra harakat hech qachon to`xtashi kerak emas. Shunday elementlar mavjudki, misol uchun quloq, dum, kiyim va x.k ular doim harakatda bo`lmog`i lozim. Ikki yoqlama harakat deganda ushbu elementlar bir vaqtdan ikkinchisiga uzluksiz o`tib turadi. Misol uchun qadam tashlaganda, yugurganda va x.k. prsonajning harkatda bo`lmayotgan vaqtda tana elementlarning alohida harakati uzluksiz harakat deyiladi. Uzluksiz xarakat davri almashinuvini taminlaydi. Agar personaj yugura turib tezda toxtasa, tananing qismlari ham tezda toxtamasligi ular hali harakatda bo`lishi va sekinlik bilan toxtashi kerakligini ifodaydi(soch, dum, quloq va x.k). piyoda yurganda tanani harakati son qismidan boshlanadi keyin topiq qismga o`taadi. Shu asnoda tanaani boshqa qismlari zanjir sifatida bir biriga bo`g`lanadi. Harakatning boshlanishi boshqa bir harakatni yuzaga keltrib chiqarishi animatsiyada ikki yoqlamali harakat yoki uzluksiz harkat deyiladi.

6. “ Aylanma harakat” (arcs). Har bir trik mavjudot har doim aylana trayetorisi bo`ylab harakatlanadi. Shuning uchun animatsiyada to`g`ri chiziq uslubi qo`llaniladi bu mehanik harakat bilan bo`g`liq bo`ib huddi robot harakatiga

o`xshaydi. Harakat trektoriyasi tezlikni qanday bo`lish qoidasini taminlaydi. Agar personaj harakati tez bo`lisa, traektoriya tekis bo`ladi, agar sekin bo`lsa, traektoriya ham shunga yarasha egri bo`ladi.

7. “Ikkinchi darajali harakat”(Secondary actions). Ko`pincha pesonajga o`zgacha jilo berish uchun Ikkinchi darajli harakat ishlatiladi. Masalan, Ikkinchi darajali harakat animatsiya dunyosini ancha rivojlantirdi. Ikkinchi darjali harakat personajni hayotiy va emotsional chiqishda yordam beradi.

8. Vaqt hisobi (Timing). Bu prinsip personajni umumiy holatini ko`rstadi. Qay darajada tomoshbin butun personajga baho beradi? Butun personaj bir fursatda birlashtriladiki bunda tez harakatdan sekin harakatga o`tkaziladi. Buning uchun personaj oz vazniga mos ravishda harakatda bo`lishi, rassom vaqt hisobini olishi har bir personaj zaxlesta harakatini ocha berishi lozim. Bunda qaxramonni emotsional xolatini, xarakter xolatini vaqt hisobini to`g`ri tashkil etish lozim bo`ladi. Harkatlangada sarf qilinadigan eneriyani charchoq xolatlarini xayotiy chiqishini talab qiladi.

9. Bo`rtirib chiqrish (Exaggerrate and Caricature). Uolt Disney o`z ish chlaridan talab qilardki tasvirni hayotiy chiqishiga va “karikaturani hayotiyiligiga” katta etibor berar edi. Agar personaj g`amgin xolda bo`lsa qorong`u zulmatli, hursand bo`lsa yorug` nurafshon bo`lishini talab qilgan. Bo`rtirib akslantrish yordamida emmotsional holatni tomashabinga etkazib bergan, ammo personajni xul atvorni ifodalashda karikatura jozibaligiga bog`liq bo`lgan.

10. Professional tasvir. Animatsiyada tasvir muhim rol o`ynaydi. Disney ustudiyasida ko`plab taxtachalarida turli yozuvlar bo`lardi masalan, “Seni tasviriy ijodini boshqalar xis qilish uchun unda teranlik va muvozanat bo`lishi kerak ” deyilgan. Professional tasvir prinsipi tasvirni “egzak” qilib chizishni takidlidi. “Egizak” deganda har qanday tasvirni ikkinchi marta qayta tizilishi yoki simmetrik bir hil bo`lishlikni anglatadi. Egizaklar odatda kamdan kam hollarda bibiidan farq qilishadi. Ana shu prinsip asosiga ko`ra bir pesonajni chizayoganda uni har bir kadrni avvalgisidan ajralib qolmasligi uchun rassomlardan katta mahorat talab qiladi.

11. Jozibadorlik (Appeal). Personajni jozibadorligi-filmni muvofaqiyat yo`lidir. Pesonajni jozibadorligini qanday aniqlash mumkin? Jazibadorlik har qanday jismda bo`lishi mumkin, agar mamnuniyat bilan unga qarasangiz unda oddiylikni, yoqimliqlikni, yaxshi bir dizayni, xusunkorlikni, insonni o`ziga tortuvchi bir xislatni tuyishingiz mumkin. Bu personajni jozibadorlikdan diqqatni uzub bo`lmaydi. Xatto salbiy qaxramon xam jozibador bo`lishlikni talab etadi, tomoshabin diqqatni ushlab uchun.

### **1.5. Animatsion filmni yaratish bosqichlari**

Animatsion filmlarni yaratishda kompyuter texnologiyarini tadbic qilish bilan birgalikda tomoshabin etiborini jalab qilish katta mehnatni talab etadi.

Har qanday oson tuyilgan kompyuter animatsiyasi rassom, yozuvchi rejissiyordan kotta mahoratni talab etadi.

Birinchi bosqich-Mavzuni o`ylab toppish va ssenariysni tuzish.

Ikkinchi bosqich- personajni yaratish va uni ishalsh stili vatexnikasini tanlash.

Uchinchi bosqich- filmni sxemasini aniqlashtirish va harbir kadr vaqtni aniqlashtirish.

To`rtinchi bosqichda Qisqa syujetlarda personajlarning harakati shakllantiriladi.

Beshinchi bosqich- Adobe Premier dasturida musiqaviy fon effektarini berish.

### **Birinchi bob bo`yicha xulosa**

Bu bobda animatsiyani tarixiy jarayonlarini, yanglikalrini va animatsiyada bo`ladigan hodisa, prinsiplari texnologiyalari, animatsion filmlarni bosqichma-bosqich rivojlanish bilan tanishildi.

## II BOB. ADOBE FLASH DASTURI

### 2.1. Grafik yaratuvchi dasturlar va Adobe Flashda animatsiya

Hozirgi kunda Web sahifalarni yaratishda oldingi o'rinlardan biri rastrli grafika hisoblanadi. Rastrli formatlardan GIF(graphics interchangeformat ma'lumotlarini almashinuvi uchun grafik format ). JPEG(Join Photografic Experts Graup Tasvirlar bo'yicha mutaxassislarni birlashgan guruhi)va PNG(Portable network Graphics ko'chirma grafik format)va boshqa formatlarnikeltirish mumkin.

Rastrli grafikani ishlatishda tasvir nuqtalar majmuasidan iborat bo'ladi. Bu nuqtalar bir-biri bilan bog'liq bo'lmaganligi uchun ushbu nuqtalar har biriga rangini va koordinatasi berilishi kerak. Oddiy holda agar ikki xil rangli tasvir ishlatilsa u holda har bir pikselni ta'riflash uchun har pixelga bunday razryadlardan 8ta kerak bo'ladi. Juda ham murakkab fotorealistik rangli tasvirlar 1 pixeliga 24 razryad talab qiladi. Rastrli tasvirlarni yana bir kamchiligi shundan iboratki , tasvir sifati pixel o'lchamiga bo'liq, u esa o'z navbatida monitorni imkoniyati bilan belgilanadi. Shuning uchun bir xil rasm turli monitorda har xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Bu ham hali hammasi emas. astrli tasvirni o'lchamini o'zgartirish juda ham murakkab. Cunki bunday tasvirni kattalashtirish pexseller sonini o'sishiga olib keladi. Kompyuter grafikasi sohasidagi mutassislar tomonidan juda murakkab rastrli tasvirlar pixelar "ko'paytirushy"yoki o'chirish algaritmlari ishlab chiqilgan, lekin ular doim ham ushbu masala bajara olmaydi.

Grafikaning yana bir turi bu vektorli grafikadir. Vektorli grafika bu tasvirni rasmda joylashuvi matematik formulalar bilan berilgan egri chizialar majmuasi yordamida namoyish etish usulidir. Masalan istalgan doirani tasvirlash uchun uchto'rt raqam kerak bo'ladi. Radius markazi koordinatalari va chiziq qalinligi. Shuning uchun vektorli grafika rastrli grafikaga nisbatan bir qancha qulayliklarga ega:

- vektorli tasvirlarni belgilovchi matematik formulalar kompyutr xotirasida rastrli tasvir pixelarga qaraganda kamroq joy egallaydi.

- tasvir (yoki uning ayrim qismlarini)sifatini yo'qotmasdan chegaralanmagan kattalashtirish imkoniyati mayjudligi.

-tasvirni bir platformadan ikkinchisiga ko'chirishning qulayligi .

Albatta vektorli tasvirni o'z kamchiligi ham mavjud. Masalsn, fotorelastik tasvirni vektorli formatdan namoyish qilish murakkabroq. Flash yaratuvchilari bunga ham yechim topishgan. Flash dasturi yordamida Web sahifalar tuzishda siz nafaqat vektorli balki rastri tasvirlarni ishlatishingiz ham mumkin.


Flash dasturida animatsiya ikki xil bo'ladi: kadrli va avtomatik. Avtomatik animatsiya shakllar geometriyasini o'zgarishi yoki boshqaruv kadrlar o'zgarishi asosidagi animatsiya turlariga bo'linadi. Bu turdagi animatsiyani yaratish uchun biz bitta boshqaruv kadrni yaratamiz va unga belgi qo'yamiz. Masalan boshqaruv kadrda aylana chiziladi. Va u grafik tasvir belgi turiga F8 yoki Vstavka menyusida Preobrazavot v simvol buyrug' yordamida o'tkaziladi. Yoki ctrl+F8 buyrug'ini tanlab yangi belgi yaratamiz va belgilar kutubxonasi yordamida uni boshqaruv kadrqa qo'shamiz.

Adobe Flashda ishni osonlashtirish va rolik o'lchamlari yaxshilash uchun simvol tushinchasi kiritilgan. Simvol quyidagicha bolishi mumkin. Grafika(Graphic), tugma(button), animatsion rolik (movie clip), tovush(sound). Bu imkoniyat yatarilgan obtektlar bir necha marta foydalanish imkonini beradi.


Endi belgi joylashgan boshqaruv kadrni sichqonchaning o'ng tomonidagi tugma yordamida tanlab Great motion twening yoki vstavit vmenyusining shu nomli buyrug'ini tanlaymiz. Shu harakatlar vatijasida boshqaruv kadr rangi ko'k rangga o'zgaradi. Endi sichqoncha bilan yangi kadrni tanlaymiz va F6 ni buyrug'ini tanlaymiz. Natijada kadrda ko'k rangli boshqaruv kadr hosil qilinadi. Birinchi boshqaruv kadrda ikkinchi boshqaruv kadr gacha kadrlar ko'k rangda avtomatik hosil qilinada. Oxirgi harakatimiz bu ikkinchi boshqaruv kadrda belgini o'zgartirish(cho'zish, aylantirish, kattalashtirish yoki kadrda joylashishini o'zgartirish). Endi klviaturadagi Enter tugmasini bosamiz va biz yaratgan animatsiyani ko'rishimiz mumkin.

**Adobe Flashda animatsiya yaratish tartibi.** Bu turdagi animatsiyani yaratish uchun biz boshqaruv kadrlar o'zgarishi asosidagi yaratilgan animatsiya hosil qilamiz. Faqat endi oxirida ikkinchi qatlamdagi belgini butunlay o'chirib uning

o'rniga kvadrat chizamiz. Shu harakatimizdan keyin kadrlar rangi normal ranga qaytadi. Keyin birinchi va ikkinchi boshqaruv kadrlaridagi grafik tasvir belgisini ctrl+F8 yoki Izmenet menyusidagi Razidelet oldelno buyrug'i yordamida alohida shakllarga bo'lib chiqamiz. (2-rasm).



1-rasm. Adobe Flash dasturi.




2-rasm. Ishchi soha.

Endi avval birinchi boshqaruv sichqoncha chap tugmasi bilan tanlab stoyanka(Proptrill)yoki ctrl+F3 yoki Okno menyusini shu nomli buyrug'ini tanlaymiz. Natijada muloqot oynasi hosil qilinadi va unda Tweening sohasida Motions o'rniga Shape holatini tanlaymiz. Natijada boshqaruv kadr rangi yashil ranga o'garadi. Endi ikkinchi boshqaruv kadrni ham sichqoncha bilan tanlab

animatsiya turini Motiondan Shapega o'zgartiramiz va oxirida Enter tugmasini bosamiz. Va qarayotgan animatsiyani ko'rishimiz mumkin. Bunda yopiq doirani pleerda harakatga kelish animatsiyasini ko'ramiz.


Ko'rishimiz mumkin ikkila animatsiyalarda ham ikkita boshqarish kadrlar o'rtasidagi masofa kadrlarni kompyutr o'zi avtomatik yaratgan va animatsiya to'g'ri chiziq bo'yicha harakatlanadi. Ammo bizga harakat traektoriyasi bo'yicha bajarilishi kerak bo'lsa, u hold anima qilish kerak? Bunday animatsiyalarni hosil qilish uchun bizning qatlamimiz ustida maxsus harakat traektoriya qatlamini yaratish kerak bo'ladi. Va shu qatlamda qalam bilan qiyshiq traektoriya chizig'ini chizamiz. Natijani ko'rish uchun Enter tugmasini bosamiz. (3-rasm).



3-rasm. a)kadr hosil qilish.

Insert Layer buyrug'i yordamida yangi qatlam yaratamiz va Pencil instrumentini faollashtiramiz. Yaratilgan chiziqni sakrayotga ko'ptok uchun yo'l sifatida foydalanamiz. Chiziqni tanlaymiz va Edit copy (ctrl+c) buyrug'i yordamida buferga olamiz. Shu bilan birga avtomatik animatsiyalarda foydalanish mumkin bo'lgan yana bir effekt mavjud bu-mask qatlamdir. Maska qatlami uchun asosiy qatlam ustida yangi bo'sh qatlam yaratmiz. Shu qatlamning sichqonchani chap

tugmasi bilan bosib Maska mask buyrug'ini tanlaymiz. Natijada qatlam ko'k ranga o'zgaradi. Vaikkila qatlamlar o'zgarishlardan himoyalaniadi. Maska qatlamdan shu himoyani O'chirib boshqaruv kadrda bir nechta to'rtburchaklar Enter tugmasi bosamizva natijani ko'ramiz. (4-rasm)



4-rasm. b)animatsiyani hosil qilish.

Usul obyekt xususiyatlarni boshqarish uchun xizmat qiladi. Eng oddiy foydalanish sifatida koordinata o'zgarishlarini keltirishimiz mumkin. Yangi fayl yaratamiz vaaylana chizamiz. Paint Bucket(u) eksterumenti yordamida oq-qora gradient bilan uning ichini bo'yaymiz. Maska qatlamdagi boshqaruv kadrni Motion tweening animatsiyalahtirilsa harakatlantirish effekti yanada chiroyli bo'ladi. Flashdagi animatsiya "multik"da ishlatiladigan obektlarni xossalarini o'zgartirishga asoslangan. Masalan obekt yo'qolishi yoki paydo bo'lishi , joylashuvini rangini va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Flashda obyektarni animatsiyalashni 3 ta turli mexanizmi ko'zda tutilgan:

Kadrma kadrli ("klassik") animatsiya bu usulda muallif bo'lg'usi "multik"ni har bir kadrni o'zi yaratadi yoki boshqa joydan import qiladi. Namoyish ketma ketligini o'zi yaratadi. Avtomayikanimatsiya (tweened animatsiya)bu usulda muallif

multifatsiya kadrlarini faqat birinchi va oxirgisini yaratadi. Otraliq kadrlarni esa Flash avtomatik tarzda o'zi yaratadi. Tweened animatsiyani ikki xil turi mavjud :obyektni ko'chirishga asoslangan animatsiya va transformatsiyasiga asoslangan animatsiya. Snariyga asoslangan animatsiya , Snariy Flashning dasturlash tilida(bu til Action Script)deb nomlanadi. Obyektni hatti-harakatini berilishidir. Bu tilni sintaksini Web hujjatlarda ishlatiladigan boshqa senariy tillariga (Java Script vaVB Script) o'xshab ketadi. Ushbu mexanizmlarni har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Masalan tweened animatsiya ikki afzalikka ega:

-birinchidan muallif har bir kadrni alohida yaratish zarurati kutilgan.

-ikkinchidan bunday "multik"ni tashkil etish uchun Flashda faqat birinchi va so'ngi kadrni saqlash kifoya. Bu esa o'z navbatida bunday filmni hajmini kam bo'lishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga tweened-animatsiyani faqat kadrlar interaktiv bo'lishi mumkin. Shu bilan birga ko'pgina standart amallar filmini biror bir elementiga Action Scriptda dasturlasgdan foydalanmay berilishi mumkin. Standart amallarga masalan filmni namoyishini boshlash va to'xtatish ovozi yoqish yoki o'chirish va boshqalar. Hammasi bo'lib standart amallarni o'nga yaqin turi mavjud.

Agar zarurat tug'ilsa ham murakkab snariylar tuzilishi mumkin. Masalan u yoki bu holat yuz berishi , so'ngra kerakli amal bajarilishiga o'tish. Lekin bunday snariylarni yoqish yoki o'chirish yaratish dasturlashdagi bilimlarini boshlash va to'xtatish kerak bo'ladi. Flash filmlarni ishlatilish bir necha usullarni tadim etadi. Siz filmni syujeti va foydalanuvchi bajargan amaldan qat'iy nazar to'xtamaydigan amalni yaratishingiz mumkin. Alternativ variant animatsiyava tovushni sinxromlash. Bundan tashqari Flash tugmachalariga tovush ishlatishingiz mumkin. Bu esa tugmalarni interaktiv qiladi. Tovush bilan ishlashni yana bor varianti - Action Script snariylardan foydalanib tovushni bosqarish. Flashda tovushni qo'shishni ikki xili mavjud. Xodisaviy boshqariladigan (event sound) va oqimli(stream sound). Flash tovush bilan ishlashda yaratuvchilar uchunquyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-bo'linuvchan tovush kutubxonalari yaratish yani bir kutubxonadagi tovushni bir necha filmlarda foydalanish imkoniyatidir.

-tovush sifati va eksporti qilinayotgan filmni optimal birlashuvini tanlash maqsadida tovushli ma'lumotlarni qo'shish ko'rsatgichlarini boshqarish muallif alohida tovush yoki filmdagi barcha tovushlar uchun qo'shish ko'rsatgichini tanlashi mumkin. Bundan tashqari siz tovushni o'zgartirish uchun turli qo'shimcha effektlardan foydalanishingiz mumkin.

## **2.2. Flash filmlarni ishlatish variantlari va uni grafik formatlarga o'tkazish.**

Yuqorida takidlab o'tilgandek Flashning asosiy vazifasi grafika va animatsiya bo'lgan interaktiv Web-sahifalarni yaratishdan iboratdir. Flash yaratuvchilari uning yordamida olingan filmlarni ishlatilishini yana ikki boshqa variantlarini ham ishlab chiqishgan. Birinchidan Flash filmlarini mustaqil (Web browserda bog'liq bo'lmagan holda) namoyish etilishi, ikkinchisi esa Flash filmlarini boshqa formatlariga o'tkazilishidir. Filmlarni flash yordamida yaratish va taxrirlash vaqtida muallif FLA formatiga ega fayllar bilan ishlaydi. Bu Flash muxarririni ichki (shaxsiy) formatidir va u faqat Flashda tushinarlidir. Web-browser yordamida namoyish etish uchun mo'jallangan filmlar SWF formatiga o'tkazib olish zarur. Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, ushbu format browserlari (Internet Explorer, Netscape va Opera) so'ngi versiyalarida namoyish etilishi mumkin, yoki maxsus Flash player yordamida ham namoyish etilishi mumkin. Ushbu Flash player Flash muxarriri tarkibiga mustaqil dastur sifatida kiradi va SWF fayllar muxarririsiz ham Flash playerda namoyish etilishi mumkin. Shu bilan birga filmni barcha funksional va interaktiv imkoniyatlar saqlanib qoladi.

Flash filmlarini "avtonom" namoyish etilishi ikkinchi variant bu Universal Media playerdan foydalanishdir. Buning uchun Flash film AVI formatida eksport qilinishi kerak. Lekin bu holda filmni hajmi ayrim hollarda yuz barobar ortib ketishi mumkin.

Adobe Flashda ishni osonlashtirish va rolik o'lchamlarini yaxshilash uchun simvol tushinchasi kiritilgan. Simvol quyidagicha bo'lishi mumkin. Grafika (Graphic), tugma (button), animatsion rolik (movie clip), tovush (sound). Bu imkoniyat yaratilgan ob'ektlar bir necha marta foydalanish imkonini beradi. Flash

filmlarini AVI formatiga o'tkazishi ularning interaktivligini yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun ushbu variant keng tarqalmagandir. Flash filmlarini namoyish etishni yana bir turi mavjuddir. Bu variant Flash filmni animatsiyalashgan GFI formati ga o'tkazishdir. Bu holda eksportni ikki turi mavjud :har bir foydali animatsiyani bir kadrqa mos keluvchi GFI fayllar to'plami ko'rinishida yoki bir animatsiyalangan fayl ko'rinishidadir. Ekportning ikkinchi varianti afzalroqdir. Cuunki boshqa bir dastur yordamida kadrni "yig'ishga"qaraganda bu variantga fayl hajmi kichikroq bo'ladi.

Dasturlash tillarida obyekt faqat shu obyektga qo'llanishi mumkin bo'lgan atributlar (xususiyatlar)to'plami va usullar ro'yxati bilan ifodalanadi. Har bir sinf obyektlari uchun o'z atributlar va usullar to'plami belgilangan. Masalan "tugma" obyekt uchun atributlar sifatida ishlatilishi mumkin.

